

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-6]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Axmedova Anorxon Nasivali qizi

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, PhD, v.b. dotsenti

Qarshiyeva Shahodat Bektoshevna

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti magistranti

TARJIMA UNIVERSALLARI TUSHUNCHASI VA ULARNING ILMIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri – tarjima universallari tushunchasi va ularning ilmiy asoslari tahlil etiladi. Tarjima universallari – bu tarjima qilingan matnlarda muntazam uchraydigan stilistik va lingvistik xususiyatlar bo'lib, ular tarjima matnini asl matndan ajratib turuvchi belgilar sifatida qaraladi. Bu maqolada tarjima universallarining asosiy turlari – soddalashtirish (simplification), ochiqlik (explicitation), me'yorlashtirish (normalization) kabi hodisalar izchil tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarjima korpuslari asosida olib borilgan empirik yondashuvlar, asosan, Mona Baker, Toury va boshqa tarjima nazariyotchilarining ishlari asos qilib olingan. Tarjima matnlaridagi lingvistik hodisalar deskriptiv yondashuv doirasida ko'rib chiqilib, tarjimon faoliyatidagi beixtiyor strategiyalarni aniqlashga harakat qilingan. Ushbu maqola tarjima amaliyoti va nazariyasini chuqurroq tushunishga xizmat qiluvchi tahliliy asos yaratadi hamda tarjima jarayonini tizimli tahlil qilishga zamin tayyorlaydi.

Kalit so'zlar: tarjima universallari, tarjima nazariyasi, soddalashtirish (simplification), ochiqlik (explicitation) me'yorlashtirish (normalization) tarjima uslubi, korpus lingvistikasi, Mona Baker, tarjimada umumiy xususiyatlar, stilistik xususiyatlar.

Axmedova Anorxon Nasivali qizi

PhD, Acting Associate Professor, Uzbekistan State World Languages University

Qarshiyeva Shahodat Bektoshevna

Master's student, Uzbekistan State World Languages University

THE CONCEPT OF TRANSLATION UNIVERSALS AND THEIR SCIENTIFIC FOUNDATIONS

Abstract. This article examines one of the key directions in translation theory – the concept of translation universals and their scientific foundations. Translation universals are stylistic and linguistic features that regularly appear in translated texts and serve as markers distinguishing them from original texts. The article provides a detailed analysis of the main types of translation universals, including simplification, explicitation, normalization. The research is based on empirical approaches using translation corpora and relies on the works of Mona Baker, Toury, and other leading translation theorists. Linguistic phenomena in translated texts are explored within the framework of the descriptive approach, aiming to identify the unconscious strategies employed by translators. This article offers an analytical foundation for a deeper understanding of both translation practice and theory and contributes to a more systematic analysis of the translation process.

Keywords: translation universals, translation theory, simplification, explicitation, normalization, translation style, corpus linguistics, Mona Baker, common features in translation, stylistic features.

Ахмедова Анорхон Насивали кизи

PhD, и.о. доцента Узбекского государственного университета мировых языков

Каршиева Шаходат Бектешевна

Магистрант Узбекского государственного университета мировых языков

ПОНЯТИЕ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ УНИВЕРСАЛИЙ И ИХ НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ

Аннотация. В данной статье рассматривается одно из важных направлений теории перевода – понятие переводческих универсалий и их научные основы. Переводческие универсалии – это стилистические и лингвистические особенности, которые регулярно встречаются в переводных текстах и служат признаками, отличающими перевод от оригинала. В статье последовательно анализируются основные типы универсалий перевода, такие как упрощение (simplification), экспликация (explicitation), нормализация (normalization). Исследование основывается на эмпирических

подходах с использованием корпусов переводов и базируется на работах Моны Бейкер, Тури и других теоретиков перевода. Лингвистические явления в переводных текстах рассматриваются в рамках дескриптивного подхода с целью выявления неосознанных стратегий переводчика. Настоящая статья создает аналитическую основу для более глубокого понимания как переводческой практики, так и теории, а также способствует системному анализу процесса перевода.

Ключевые слова: универсалии перевода, теория перевода, упрощение, экспликация, нормализация, переводческий стиль, корпусная лингвистика, Мона Бейкер, общие особенности перевода, стилистические особенности.

Kirish

Tarjima ikki til orasidagi aloqa vositasi bo'lish bilan birgalikda madaniyatlararo muloqotni ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonda tarjima fani o'z oldiga faqatgina lingvistik emas, shu bilan bir qatorda madaniy, stilistik va psixologik mavzularni ham qo'yadi. Shu sababli tarjima nazariyasining rivojlanishi dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biridir.

So'nggi o'n yilliklarda tarjima matnlarini lingvistik jihatdan tizimli ravishda o'rganish natijasida "tarjima universallari" (ing. translation universals) deb nomlangan muhim ilmiy tushuncha shakllandi. Bu atama ilk marta 1993-yili mashhur ingliz tarjima nazariyotchisi Mona Baker tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u tarjima matnlari asl matnlardan farqli ravishda ba'zi umumiy stilistik va strukturaviy xususiyatlarga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan. Tarjima universallari g'oyasi tarjima qilingan matnlar o'rtasidagi umumiyliklarni aniqlash va ularni nazariy asoslashga xizmat qiladi. Ushbu universallar tarjimonning beixtiyor qilgan tanlovlari natijasida shakllanadi. Masalan, tarjima matnlarida soddalashtirish (simplification), ochiqlik (explication), me'yorlashtirish (normalization) kabi xususiyatlar tez-tez uchraydi. Bu holat tarjima matni strukturasi, uslubi va mazmuniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – tarjima universallari tushunchasining nazariy asoslarini o'rganish, ularning asosiy turlarini tahlil qilish va tarjima amaliyotida qanday shakllanishini ko'rsatishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, maqolada bu hodisani turli xil olimlarning yondashuvi orqali yoritish va mavjud nazariy qarashlarni solishtirish ham ko'zda tutilgan. Maqolada quyidagi ilmiy vazifalarni hal qilish rejalashtirilgan: tarjima universallari tushunchasining paydo bo'lishini va ilmiy asoslarini tahlil qilish; asosiy tarjima universallarini klassifikatsiya qilish; tarjima matnlaridan olingan misollar asosida universallarning namoyon bo'lish shakllarini aniqlash; ushbu hodisaga oid tanqidiy yondashuvlarni ko'rib chiqish.

Asosiy qism

Tarjima – bu faqat tilni almashtirish jarayoni emas, balki madaniyatlararo muloqot, mazmunni kontekstda to'g'ri va mos tarzda yetkazish san'atidir. Tarjimonlar turli tillar va madaniyatlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'tashi sababli, ularning ish faoliyatida yuzaga keladigan lingvistik hodisalarni o'rganish tarjimashunoslik fanining

asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda tarjima jarayonini chuqurroq anglash uchun korpus lingvistikasi yondashuvi joriy qilindi. Aynan shu metodologiya asosida tarjima matnlarida muayyan qonuniyatlar, ya'ni tarjima universallari mavjudligi haqida ilmiy gipotezalar ilgari surildi.

Tarjima universallari – bu tarjima qilingan matnlarda, ularning manba tilidan qat'i nazar, takroran uchrab turadigan lingvistik yoki stilistik xususiyatlardir. Ular tarjimon tomonidan amalga oshiriladigan beixtiyor yuzaga keladigan strategiyalarning mahsuli bo'lib, tarjimaning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu hodisalarni aniqlash va tasniflash orqali tarjima sifatini oshirish, tarjimonlarning kasbiy faoliyatini baholash va tarjima nazariyasini rivojlantirish mumkin.

Tarjima universallarini o'rganish, avvalo, tarjima nazariyasining deskriptiv paradigmasiga tayanadi. Deskriptiv tarjimashunoslik (Descriptive Translation Studies – DTS) tarjimoni qanday bo'lishi kerakligini emas, balki amalda qanday amalga oshirilayotganini o'rganishga qaratilgan yo'nalishdir. Bu yondashuv XX asrning ikkinchi yarmida Gidion Turi¹, Mona Beyker², Shoshana Blum-Kulka³ kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi.

Korpus lingvistikasi metodlari yordamida tarjima matnlari chuqur tahlil qilinib, ularda soddalashtirish (simplification), ochiqlik (explication), normallashtirish (normalization) kabi umumiy til hodisalari mavjudligi aniqlangan. Bu hodisalar tarjima universallari sifatida nom olgan bo'lib, ular tarjimon psixologiyasi, maqsadi, til va madaniyat talablari hamda tarjima kontekstidagi kommunikativ ehtiyojlar bilan bevosita bog'liqdir.

Demak, ushbu bobda tarjima universallari tushunchasi, uning nazariy asoslari va ilmiy rivojlanish bosqichlari atroflicha tahlil qilinadi. Avvalo, tarjima universallarining ta'rifi va mohiyati izohlanadi, so'ngra ularning deskriptiv tarjimashunoslik doirasidagi o'rni,

¹ Toury, G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1995. – 324 p.

² Baker, M. Corpus Linguistics and Translation Studies: Implications and Applications. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1993. – 233 p.

³ Blum-Kulka, S. Shifts of Cohesion and Coherence in Translation. – In: House, J. & Blum-Kulka, S. (Eds.). Interlingual and Intercultural Communication: Discourse and Cognition in Translation and Second Language Acquisition Studies. – Tübingen: Gunter Narr Verlag, 1986. – pp. 17–35.

kognitiv va lingvistik asoslari, hamda klassifikatsiyasi ko'rib chiqiladi.

“Tarjima universallari” atamasi tarjima qilingan matnlarda muntazam ravishda uchray turadigan va tarjima jarayonining o'ziga xos natijasi sifatida yuzaga chiqadigan stilistik yoki grammatik xususiyatlarga nisbatan qo'llaniladi. Bu atama tarjimashunoslikda ilk bor 1980–yillarning oxirida va 1990–yillarning boshlarida akademik muomalaga kirib kelgan bo'lib, uni ilmiy joriy etgan olimlar orasida Mona Baker, Shoshana Blum–Kulka va Gideon Toury kabi nomlar tilga olinadi.

Tarjima universallari tarjimonlar tomonidan ixtiyoriy yoki bexosdan yuzaga keladigan, ammo ko'p hollarda umumiylik kasb etuvchi tilshunoslik xatti–harakatlari sifatida e'tirof etiladi. Ular turli manba tillar va kontekstlarda amalga oshirilgan tarjimalarda uchrayishi mumkin bo'lgan doimiy tendensiyalarni aks ettiradi. Bu holat tarjima matnlarida izchil ravishda aniqlanadigan uslubiy va strukturaviy o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

Tarjima universallarining ilmiy asoslari tarjima nazariyasining turli yondashuvlari – xususan, Deskriptiv tarjimashunoslik, norm nazariyasi, kognitiv lingvistika va korpus lingvistikasi bilan chambarchas bog'liq. Bu universallar tarjima faoliyatidagi takrorlanuvchi xatti–harakatlar bo'lib, tarjimonlar qarorlarining natijasi sifatida yuzaga chiqadi.

Deskriptiv tarjimashunoslik doirasida, Gidion Turiyning (1995) “norm” nazariyasi muhim o'rin egallaydi. Unga ko'ra, tarjimonlar maqsad tilidagi madaniy va kommunikativ konvensiyalar asosida harakat qiladi. Bu esa tarjimada izchil bo'lgan uslubiy va grammatik tendensiyalarning shakllanishiga olib keladi.

Boshqa bir muhim nazariy asos bu – Mona Baker (1993, 1996) tomonidan ilgari surilgan tarjimada universallar mavjudligi haqidagi farazdir. U o'z tadqiqotlarida tarjima matnlarida izohlarning ortishi, ya'ni ochiqlik (explicitation), soddalashtirish (simplification), va normallashtirish (normalization) kabi hodisalarni tizimli ravishda kuzatgan.

Kognitiv tarjimashunoslik yondashuvida tarjimonlar tomonidan ma'lumotlarni mental qayta ishlash jarayonlari o'rganiladi. Bu esa tarjimon tanlovlarining psixologik va beixtiyor asoslari mavjudligini ko'rsatadi.

Tarjima universallari nazariyasi doirasida bir nechta asosiy turdagi qonuniyatlar ajratib ko'rsatiladi. Ular tarjima jarayonida takroriy ravishda uchray turadi va tilshunoslar tomonidan empirik usullar bilan tasdiqlangan. Quyida ushbu universallarning eng ko'p uchraydigan turlari tahlil qilinadi:

1. Explicitation (izohlilik): Bu universallardan eng ko'p tilga olinadigani bo'lib, tarjimon manba matnda bevosita aytilmagan ma'lumotlarni tarjima qilinayotgan matnda ochiq ifodalashga moyillik ko'rsatadi. Misol: “She left” – “U jimjitlikda uyni tark etdi”. Bu hodisa

tarjimaning aniqligi va tushunarligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Simplification (soddalashtirish): Tarjimonlar ko'pincha murakkab grammatik tuzilma yoki leksik birliklarni soddalashtirib berishga intiladilar. Bu esa o'quvchiga matnni qulayroq va tezroq anglash imkonini yaratadi. Masalan, murakkab so'z birikmalari o'rniga soddaga gaplar ishlatilishi mumkin.

3. Normalization (normallashtirish): Tarjimonlar tomonidan manba tiliga xos bo'lgan o'ziga xosliklar ko'pincha yo'qotilib, maqsad tilidagi odatiy, standart ifodalar bilan almashtiriladi. Bu uslubiy izchillikka erishish uchun amalga oshiriladi.

4. Conservatism (tarjimaviy ehtiyotkorlik): Ba'zi hollarda tarjimon manba matnining stilistik va grammatik strukturasiga iloji boricha sodiq qoladi. Bu uslub tarjimadagi sodiqlikni ta'minlaydi, biroq ba'zan maqsad tilida g'ayritabiiy tuzilmalarga olib keladi.

5. Interference (manba tilining ta'siri): “Shining-through” deb ataladigan bu hodisa manba tilining grammatikasi, sintaksisi yoki stilistik elementlari maqsad tiliga o'z aksini topganda yuzaga chiqadi. Bunday holatlar ayniqsa yangi tarjimonlar ishida yoki o'xshash tillar o'rtasidagi tarjimalarda ko'p uchraydi.

Tarjima universallari tushunchasi nafaqat nazariy asosda, balki amaliy va empirik tadqiqotlar orqali ham mustahkamlangan. Ayniqsa, 1990–yillardan boshlab korpus lingvistikasi vositalarining tarjimashunoslikda qo'llanilishi bu tushunchaning ilmiy asosini mustahkamladi. Bu yondashuv asosida tarjima matnlarining katta hajmdagi korpusi tahlil qilinib, tarjima universallari mavjudligini ko'rsatuvchi aniq misollar aniqlangan.

Masalan, Mona Baker⁴ o'z tadqiqotlarida ingliz tiliga tarjima qilingan matnlarni tahlil qilib, ular orasida soddalashtirish (simplification), izohlilik (explicitation) va normallashtirish (normalization) tendensiyalarini aniqladi. U tarjimonlarning bu kabi uslubiy siljishlari ongli yoki ongsiz ravishda sodir bo'lishi mumkinligini ta'kidladi.

Shuningdek, Sara Laviosa⁵ ingliz tilidagi tarjima matnlarini o'rganib, ularning so'z boyligi jihatidan cheklanganligi va sintaktik tuzilmalarning soddaroq bo'lishi kabi xususiyatlarni aniqlagan. Bu esa tarjima matnlarining o'ziga xos stilistik profilga ega ekanligini ko'rsatadi.

Amaliy nuqtayi nazardan qaraganda, tarjima universallari tarjima sifatini baholash, mashinada tarjima

⁴ Baker, M. Translation and Conflict: A Narrative Account. – London/New York: Routledge, 2006. – 207 p.; Baker, M. Translation and Activism: Emerging Patterns of Narrative Community. – The Translator, Vol. 6(1): St. Jerome, 2000. – 23 p.

⁵ Laviosa, S. Core Patterns of Lexical Use in a Comparable Corpus of English Narrative Prose. – Meta: Journal des traducteurs, Vol. 43, No. 4. – Montréal: Les Presses de l'Université de Montréal, 1998. – pp. 557–570.

qilish algoritmlarini ishlab chiqish, hamda tarjimonlar tayyorlash metodikasini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, korpus lingvistikasi asosida yaratilgan parallel korpuslar orqali bu universallarni o'rganish amaliy jihatdan keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Tarjima universallari tarjimashunoslik fanining hozirgi bosqichida dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Bu tushuncha tarjima matnlarida yuzaga keladigan izchil tilshunoslik va stilistik qonuniyatlarni aniqlash imkonini berib, tarjimon faoliyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Universallarni o'rganish orqali tarjima jarayonining universal, til va madaniyatdan mustaqil ishlaydigan mexanizmlari aniqlanadi.

Nazariy jihatdan, tarjima universallari tarjima normasi, tarjimon strategiyasi, madaniy moslashtirish va mental jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, tarjima mahsulining shakllanishida qanday omillar ishtirok etishini ko'rsatadi. Bu esa tarjima sifatini baholash, tarjima texnologiyalarini ishlab chiqish va tarjimonlarni tayyorlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan esa, tarjima universallari tarjimalarni tahlil qilishda, avtomatlashtirilgan tarjima tizimlarini yaratishda, hamda tarjima qoidalari va uslublarini standartlashtirishda asosiy mezonlardan biri sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, korpus lingvistikasi asosida o'tkazilgan tadqiqotlar bu universallarning mavjudligini isbotlab berishi bilan birga, tarjima metodikasi uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Tarjimashunoslik sohasidagi keyingi izlanishlar tarjima universallarining psixologik, madaniy va

kommunikativ omillar bilan bog'liqligini chuqurroq ochib berishi kutilmoqda. Shu boisdan, bu tushuncha zamonaviy tarjima nazariyasining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Xulosa

Tarjima universallari nazariyasi bugungi tarjima tadqiqotlarida dolzarb va istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada tarjima universallari tushunchasining shakllanishi, ularning nazariy asoslari hamda tarjima matnlarida namoyon bo'ladigan asosiy xususiyatlari tahlil qilindi. Xususan, soddalashtirish, ochiqlik, me'yorlashtirish va o'rtachalashtirish kabi hodisalar tarjima jarayonida takrorlanuvchi va sistematik tarzda uchrashi empirik yondashuvlar orqali asoslandi.

Mona Baker, Gideon Toury kabi yetakchi nazariyotchilar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar tarjimada yuzaga keladigan lingvistik va stilistik xususiyatlarning ichki qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Korpus lingvistikasi va real tarjima matnlari asosida olib borilgan tadqiqotlar tarjima universallarining nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi.

Shu bois, tarjima universallarini o'rganish tarjima jarayonini chuqurroq tushunish, tarjimon faoliyatini baholash, tarjima sifati va uslubini aniqlashda muhim ilmiy vosita hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi izlanishlarni yanada kengaytirish tarjima nazariyasining metodologik bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Baker, M. Translation and Conflict: A Narrative Account. – London/New York: Routledge, 2006. – 207 p.
2. Baker, M. Translation and Activism: Emerging Patterns of Narrative Community. – The Translator, Vol. 6(1): St. Jerome, 2000. – 23 p.
3. Baker, M. Corpus Linguistics and Translation Studies: Implications and Applications. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1993. – 233 p.
4. Blum-Kulka, S. Shifts of Cohesion and Coherence in Translation. – In: House, J. & Blum-Kulka, S. (Eds.). Interlingual and Intercultural Communication: Discourse and Cognition in Translation and Second Language Acquisition Studies. – Tübingen: Gunter Narr Verlag, 1986. – pp. 17–35.
5. Laviosa, S. Core Patterns of Lexical Use in a Comparable Corpus of English Narrative Prose. – Meta: Journal des traducteurs, Vol. 43, No. 4. – Montréal: Les Presses de l'Université de Montréal, 1998. – pp. 557–570.
6. Toury, G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1995. – 324 p.

D.Bekimbetova.....	425
Baxt kategoriyasining genezisiga doir konsepsiyalar.	
O.Abdusalomov.....	429
Bilim, kuch va manfaatlar ziddiyati: korrupsiyaning gnoseologik tahlili.	
H.Temirov.....	435
Diniy qadriyatlar tizimining shakllanish manbalari va axloqiy vazifalari.	
U.Kurbonaliyev.....	439
Raqamli jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari.	
Sh.Jo'rayeva.....	442
Diniy manbalarda ayol husni-xulqi haqidagi g'oyalarning falsafiy tahlili.	
O.Ne'matova.....	449
"Temur tuzuklari" o'rta asr markazlashgan davlatchilik modelining yuzaga kelishi.	
M.Boboyev, T.Alimardonov.....	456
Jamiyatda inson kapitalini rivojlantirish masalalarini tadqiq etishning nazariy jihatlar.	
F.Qosimov.....	461
Tasavvufning majoziy tili.	
J.Xolmo'minov.....	465

FILOLOGIYA FANLARI
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

Hikoyalarda milliy qadriyatlar.	
Sh.Aldasheva.....	470
O'zbek antroponimikasining kelib chiqish tarixi.	
B.Saidov.....	473
Badiiy ijod fenomenologiyasida ijodkor va o'quvchi ongi hamkorligi masalasi.	
M.Tilovova.....	477
Terminlarning semantik tahlili va tarjima usullari.	
F.Abdullayeva.....	481
Tarjima universallari tushunchasi va ularning ilmiy asoslari.	
A.Axmedova, Sh. Qarshiyeva.....	485
Bilingval tezaurus yaratishda semantik valentlik tushunchasining tahlili (wordnet, british national corpus va o'zbek tili korpusi misolida).	
L.Babajanova.....	489
Значение дружбы в культуре узбекского народа: социальные аспекты и моральные ценности.	
Д.Атамуродова.....	494
Psixologik omillar va psixolingvistik yondashuvlarning xorijiy tilni o'zlashtirishdagi ta'siri.	
F.Djabbarova.....	498
Evfemistik tarjimada kontekstning o'rni (gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati misolida).	
M.Eshchanova.....	501
Frans Kafkaning "qishloq shifokori" hikoyasida tush motivlarining ishtiroki.	
B.Ergasheva.....	506
Nutq nuqsoniga ega bolalar tafakkur xususiyatlarini o'rganish va ularni bartaraf etishda logopedik ish metodlari.	
G.G'anieva, U.Utbosarova.....	510
Study of compliment through pragmatic theory: perspectives of modern linguistics.	
I.Jabbarov.....	514
Bilingual nutqda va mediya matnlarda estetik buzilish orqali madaniy identity ifodasi.	
G.Komilova.....	518
Bolalar folkloridagi sahnaviy elementlar.	
O.Mahamadjonova.....	522
Gastronomik turizm terminlarini ingliz va o'zbek tillarida tarjima qilish muammolari.	
M.Yuldashev.....	526
Yapon tilida ikkilangan inkor tahlili.	
N.Tursunova.....	530
O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasining g2p model uchun ahamiyati.	
G.Maxmudjonova.....	534
Istiqlol davri o'zbek romanchiligida poetika va badiiy tafakkur masalalari (Zulfiya Qurolboy qizining "Mashaqqatlar girdobi" romani misolida).	

I.Maxmudova.....	538
Omonimlar orqali o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish.	
O.Qayumova.....	543
Leksemalarning ma'no taraqqiyotiga sabab bo'luvchi omillar.	
A.Raimov.....	547
O'zbek va koreys tillarida sabab bog'lovchi qo'shimchalarning qiyosiy analizi.	
N. Salimova, Do Seon Hui.....	551
Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan libos nomlarining semantik va sintagmatik munosabatlari.	
G.Tillaboyeva.....	558
Dialektal frazeologik birliklar va ularning leksikografik talqini xususida.	
U.Rashidova.....	561
Zamonaviy ta'lim jarayonida konvergent kompetentlikni rivojlantirishda integrativ yondashuvlar.	
G.Yusubjonova.....	566
Zamonaviy tilshunoslikda konsept va uning tiplari.	
S.G'ofurova.....	570
O'lchov-miqdor semantik universalialari.	
M.Shamuratova.....	574
Adabiyot darslarida multimediya vositalaridan foydalanishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish.	
N.Abdumhamidova.....	576
"Tib qonunlari" asarida qo'llanilgan ayrim o'z qatlam tibbiy birliklar xususida.	
M.Abuzalova, U.Baxriyeva.....	580
Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasida turg'un o'xshatishlar lingvopoetik vosita sifatida.	
G.Imamova.....	584
Revolutionary perspectives in pragmatics and semantics.	
I.Isroilova.....	588
Oila konseptining kognitiv talqini va uning lisoniy obrazi: o'zbek maqollari asosida tahlil.	
D.Jumanova.....	592
Semiotik tizimlarning turlari (sintaktika, semantika, pragmatika).	
M.Habiyaliyeva.....	596
Linguoculturological analysis of the axiological lexicon.	
Sh.Dadabayeva.....	599
Adabiy ta'lim jarayonida badiiy matn bilan ishlashga doir zamonaviy yondashuvlar.	
R.Tillayeva.....	602
Ingliz tilidagi terminlarning semantik va strukturaviy tahlili.	
F.Abdullayeva.....	606
An'anaviy to'y marosimlari leksikasi orqali rus xalqining madaniy o'ziga xosligini tadqiq etish.	
E.Turdialiyeva.....	610
Ingliz tilida qisqartmalarning qo'llanish sohasi bo'yicha semantik tasnifi.	
G.Ibragimova.....	614

PEDAGOGIKA FANLARI

13.00.00 - ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

PEDAGOGICAL SCIENCES

Nazorat va tajriba guruhlarida kuch va tezkor-kuch qobiliyatlarining tajriba davridagi o'sish natijalarini shakllanish dinamikasi.	
J.Sulaymonov.....	619
Yosh basketbolchilarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish metodikasi.	
M.Rahmonov, M.G'ofurov.....	628
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida "Axborot tizimlari" kursini o'qitishning mazmuni va metodologiyasini takomillashtirish.	
N.Xudayberdiyev, Sh.Boltibayev.....	632
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv faoliyatni shakllantirishda kvest texnologiyasidan rivojlanish markazlarida foydalanish.	
F.Boltayeva.....	635
Ta'lim sifatini oshirishda onlayn so'rovnomalardan foydalanish: @online_surovnoma_bot telegram boti misolida.	
S.Ibragimov.....	641
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini qo'shiqlar orqali shakllantirish lingvodidaktik muammo sifatida.	